

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Technical Sciences, Professor.
2. Akhmedov Khojiakbarxon Dilshotovich – Rector of the Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences (PhD equivalent), Associate Professor.
3. Gulyamov Saidahrar Saidakhmedovich – Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences, Professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich - Professor at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers," Doctor of Technical Sciences.
5. Sultanov Mansur Kilichovich – Director General of the "Inno" Innovative Educational and Production Technopark under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor.
6. Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja qizi - Secretary of the Council of Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.
7. Mukhamedieva Dildora Kabilovna - Professor at Tashkent University of Information Technologies, Doctor of Technical Sciences
8. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Professor at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Doctor of Economic Sciences.
9. Popkova Yelena Gennadyevna – President of the "Institute of Scientific Communications" of the Russian Federation, Doctor of Economic Sciences, Professor.
10. Dr. Goh Khang Wen – Vice-Rector of INTI International University, Malaysia.
11. Wang Cheng – Associate Professor at the "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" in the People's Republic of China, PhD.
12. Yuldoshev Nuritdin Kurbonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
13. Akramov Tohir Abdirakhmonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
14. Sobirov Azizbek Avazbekovich – Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD.
15. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Head of the Department of International Scientific Journals and Ratings, Alfraganus University, Candidate of Economic Sciences.
16. Khotamov Ibodullo Sadulloyevich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences.
17. Turakulov Otabek Kholmizrayevich – Head of the Department of Engineering and Information Technologies at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
18. Yuldasheva Saodat Arislanovna – Head of the Department of Economics, Tashkent State Transport University, Candidate of Economic Sciences.
19. Giyosidinov Boburbek Baxtiyorovich - Acting Associate Professor at Tashkent State Transport University, Doctor of Philosophy.
20. Primov Sirojiddin Furqat ugli — Senior Lecturer at the Department of Business Management and Finance, Tashkent Institute of Management and Economics, PhD in Economics.

MUNDARIJA

Radjabov B.A.	Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari	3
Xakimov Z.A. Xidoyatov M.B.	O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	10
Soliyev D.J. Oxunova D.O.	O'zbekistonda islomiy moliya munosabatlarini joriy etish: muommo va yechimlari	18
Abdufattoxonova X.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining menejmentdagi qo'llanilishi: Imkoniyatlar va xavflar	25
Otaboyev F.O.	Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish nazariyalari evolyutsiyasi va xalqaro kapital parakatini tartibga solish	31
Sharipov Sh.X.	Smart purkagichlar texnologiyalarining adabiy tahlili	44
Mamasoatov D.R.	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	49
Han Zihao	A study on the impact of china-uzbekistan transportation connectivity projects on regional trade costs (e.g., the china-kyrgyzstan-uzbekistan railway)	54
Zhang Shaojie	A study on the economic effects of chinese aid in promoting the modernization of education in uzbekistan	61
Wang Anning	Trade Characteristics of Uzbekistan's Imports of Fruit and Vegetable Agricultural Products from Xinjiang, China	69
Omonturdiyev O.E.	O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish istiqbollari	82
Xaydarov S.X.	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'рни va bunda xorijiy mamlakatlar tajribasi	86
Sobirov A.A.	Marketing ekotizimini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	92
Akramov T.A.	Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish asosida raqobatbardoshligini oshirish	99
Abduraxmonova F.N.	To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish	107
Ботиров Л.Б. Хамидова Н.И.	Порядок организации системы бухгалтерского учета в промышленности строительных материалов	112
Hakimov A.L. Bozorboev X.T. Suyunov Y.B.	Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar tahlili	117
Сайдалиева Г.А.	Қишлоқ хўжалиги ерларини баҳолаш ва унинг натижаларидан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари	127
Mullajonov I.T.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari	136
Qudratxo'jayev A.Q.	Sanoat korxonalari faoliyatini aylanma iqtisodiyot modeli asosida takomillashtirish	143

TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQUARISHNI RIVOJLANTIRISH

Abduraxmonova Feruza Nusratovna

*Toshkent menejment va iqtisodiyot
instituti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada to'qimachilik sanoatida tejamkor ishlab chiqarish tizimini joriy etish, uni boshqarish jarayoni hamda ishlab chiqarishni tashkil etish masalalari yoritilgan. Korxonada boshqaruv tizimining asosiy funksiyalari, resurslardan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, to'qimachilik sanoatida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Korxona, ishlab chiqarish, xodimlar, tejamkor ishlab chiqarish, sifat va samaradorlik, raqobatbardoshlik

Abstract: This paper examines the activities of a textile enterprise, the management process, and issues related to production organization. The main functions of the management system, efficient use of resources, and ways to increase labor productivity are analyzed. In addition, conclusions and recommendations aimed at improving management efficiency in the textile industry are presented. The results of the study have practical significance for improving enterprise performance.

Keywords: enterprise, production, employees, lean production, quality and efficiency, competitiveness.

Аннотация: В данной работе рассматривается деятельность текстильного предприятия, процесс управления и вопросы организации производства. Проанализированы основные функции системы управления, эффективное использование ресурсов и пути повышения производительности труда. Также представлены выводы и предложения, направленные на повышение эффективности управления в текстильной промышленности. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования деятельности предприятия.

Ключевые слова: предприятие, производство, сотрудники, бережливое производство, качество и эффективность, конкурентоспособность.

Kirish. To'qimachilik sanoati resurslardan samarali paydalanish va O'zbekiston iqtisodiyotining eng yirik va mahsulot sifatiga bo'lgan talablarni eksportga yo'naltirilgan tarmoqlaridan biri bajarish maqsadida korxonalarda hisoblanadi. Mazkur sohaning tejamkor ishlab chiqarish (lean production) tamoyillarini joriy etish raqobatbardoshligini oshirish, dolzarb vazifalardan sanaladi. **"Tejamkor"**

ishlab chiqarish ishlab chiqarish jarayonidagina emas, balki mahsulotlarni omborda saqlashni tashkil etishda ham asosiy turdagi yo'qotishlarni kamaytirish uchun samarali vosita va usul hisoblanadi.”[1] “Tejamkor ishlab chiqarish kontseptsiyasi” ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishni, har bir xodimni ushbu jarayonga jalb etgan holda xarajatlarni doimiy ravishda qisqartirish bilan birga mahsulot sifatini uzluksiz yaxshilashga qaratilgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu kontseptsiya xo'jalik yuritishning bozor sharoitlariga maksimal darajada moslashtirilgan.”[2] Tejamkor ishlab chiqarish tizimi ishlab chiqarish jarayonlaridagi isrofgarchilikni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, sifat va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. “Tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish bo'yicha o'zgarishlar dasturini shakllantirish va korxonada ishlab chiqarishni tashkil etishda qaysi tejamkor ishlab chiqarish tamoyillari guruhi asos qilib olinishi borasida mualliflar turli fikr bildirishiga qaramay, asosiy postulatlar, jumladan qimmatlik, erishish vositalari, korporativ madaniyat, olingan natijalami doimo yaxshilash barcha tadqiqotlarda muqarrar ishtirok etadi.”[3] To'qimachilik sanoatida tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish jarayoni matoni qabul qilishdan boshlab tayyor mahsulotni qadoqlashgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining har bir

bosqichini qayta ko'rib chiqishdan boshlanadi. “Tikuvchilik korxonalarida yo'qotishlarni bartaraf etish uchun tejamkor ishlab chiqarishning aksariyat instrumentlarini qo'llash mumkin. Ularning ko'pchiligi dastlab tikish korxonalarining faoliyat asosiga qo'yilgan bo'lib, zamonaviy sharoitlarda yanada keng qo'llanilishi lozim.”[4] Asosiy vazifa — yakuniy mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shmaydigan, ammo vaqt, material va xodimlarning mehnatini talab qiladigan ortiqcha harakatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishdan iborat. Bunday ortiqcha jarayonlarga yarim tayyor mahsulotlarning ish joylari o'rtasida keraksiz ko'chirilishi, ortiqcha bichish amallari, ish joylarining noo'rin tashkil etilishi, komplektlash materiallarini uzoq kutish yoki uskunalarining bekor turib qolishi kiradi. **“Tejamkor ishlab chiqarish** kontseptsiyasida omborlash jarayonini tashkil etishda eng ommalashgan instrumentlardan biri **5S tizimi hisoblanadi.** U ish joylarini belgilangan qoidalarga rioya qilish orqali yaxshilashga qaratilgan.”[5] **Tejamkor** yondashuvining tikuvchilik sanoatidagi eng muhim jihatlaridan biri — jarayonlarni uzluksiz takomillashtirishga xodimlarning faol jalb etilishidir. Tikuvchi, operator, texnolog va sifat nazoratchilari ishlab chiqarishdagi vazifalar bilan har kuni to'qnash keladi va jarayonlarni qayerda soddalashtirish, tezlashtirish yoki brakni kamaytirish mumkinligini boshqalardan

ko'ra yaxshiroq biladi. Ularning ishtiroki faqat takliflarni yig'ish bilan cheklanmaydi — bu muntazam ravishda yaxshilash amaliyotini yo'lga qo'yishni anglatadi. Ya'ni har bir xodim muammoni ko'radi, yechim taklif qiladi va uning amalga oshirilishida faol ishtirok etadi. Bu esa tashabbuskorlik, mas'uliyat va mukammallikka intilish qadrlanadigan professional muhitni shakllantiradi. Muvaffaqiyatli tikuvchilik korxonalarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, Lean tizimini joriy etish nafaqat mahsulot ishlab chiqarish tezligini oshiradi, balki amallar aniqligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish braki hajmini kamaytiradi hamda resurslar sarfini sezilarli darajada qisqartiradi. Bu esa bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlarda, buyurtmachilar ishonchining ortishida, mehnat sharoitlarining yaxshilanishida va kadrlar almashinuvining kamayishida o'z aksini topadi. Tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish bir martalik chora emas, balki butun fabrika miqyosida samaradorlik madaniyatini shakllantirishni talab qiladi: xodimlar samaradorlik nuqtai nazaridan fikrlay boshlaydi, rahbarlar esa ushbu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va mustahkamlaydi. Natijada korxona yanada moslashuvchan va rivojlanishga qodir tashkilotga aylanadi. To'qimachilik sanoatida, har bir detal — chokning aniqligi yoki yetkazib berish muddatigacha — muhim bo'lgan sharoitda tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi, barqaror sifat

uchun zamin yaratadi va korxonani materiallarni arzonlashtirish yoki ish haqlarini qisqartirish hisobiga emas, balki oqilona boshqaruv, xodimlarning faol ishtiroki va barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali raqobatbardosh qiladi. To'qimachilik korxonalarida eng ko'p uchraydigan yo'qotishlar quyidagilardir: Xomashyo yo'qotishlari – paxta tolasi, ip-kalava, bo'yoq moddalar me'yordan ortiq sarflanishi. Texnologik yo'qotishlar – uskunalarning ishdan chiqishi yoki uzoq to'xtab qolishi. Sifat bo'yicha yo'qotishlar – brakka chiqarilgan yoki qaytgan mahsulotlar. Energiya yo'qotishlari – energiya samaradorligining pastligi sababli ortiqcha sarf. Logistika yo'qotishlari – material va mahsulotlarning ortiqcha tashilishi yoki omborlarda uzoq turib qolishi. Bu yo'qotishlarni bartaraf etish tejamkor ishlab chiqarishning asosiy vazifasidir. Tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishlari. Xomashyo sarfini optimallashtirish: paxta tolasi va ip-kalava sarfini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish; sarf normalarini qayta ko'rib chiqish; chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish. Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish: energiya tejoychi texnologiyalarni tatbiq etish; zamonaviy yigiruv, to'quv va bo'yoq uskunalarini o'rnatish; ishlab chiqarishning raqamli boshqaruv tizimlarini (ERP, MES) joriy etish. Sifat

boshqaruv tizimini takomillashtirish: ISO 9001, OEKO-TEX, BCI kabi xalqaro sertifikatlar olish; sifat auditlarini muntazam o'tkazish; brakka sabab bo'ladigan omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish. Energiyani tejash: energiya sarfini monitoring qilish; issiqlik va elektr energiyasini tejaydigan texnologiyalarni qo'llash; qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Logistik jarayonlarni takomillashtirish: moddiy oqimlarni soddalashtirish; FIFO, Kanban tizimlarini joriy etish; ombor boshqaruvini avtomatlashtirish. Xodimlar malakasini oshirish: lean production va Kaizen bo'yicha treninglar tashkil qilish; takliflar berish tizimi (Ratsionalizatorlik takliflari)ni yo'lga qo'yish; mehnat unumdorligini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Tejamkor ishlab chiqarishning kutiladigan samaralari: To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarish tizimini joriy etish quyidagi natijalarni beradi: ishlab chiqarish tannarxining pasayishi 10–25% gacha; energiya sarfining kamayishi 8–

15% gacha; xomashyo chiqindilarining kamayishi 5–12% gacha; ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi ortishi; mahsulot sifati yaxshilanishi va brakka chiqariladigan mahsulot kamayishi; korxona rentabelligi va raqobatbardoshligi oshishi; eksport salohiyati mustahkamlanishi.

Xulosa. To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Uskuna va texnologiyalarni modernizatsiya qilish, xomashyo sarfini normativ asosda boshqarish, sifatni nazorat qilish tizimini kuchaytirish, energiya tejamkorligiga e'tibor qaratish va xodimlarning malakasini oshirish orqali korxonalar barqaror faoliyat yuritishi, mahsulot tannarxini kamaytirishi va xalqaro bozorda raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Tejamkor ishlab chiqarish tizimi to'qimachilik sanoati korxonalarining kelajakdagi barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan strategik yo'nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Yaxyayeva I.K. «To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etish». Monografiya. - T: «IQTISODIYOT», 2023 yil, 232 bet.
2. Игнатова Т.В., Грузинцева Н.А. Основные аспекты развития текстильной промышленности в российских регионах // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. 2016. №6. С. 285...287.
3. Степченко Т.С. Lean-технологии в управлении предприятием // Современные технологии управления. - 2015. - №7 (55). - С. 92-98.
4. И.В. Вершинина, В.П. Алексеева. Устранение потерь на швейном предприятии путем внедрения бережливого производства. Scientific Cooperation Center "Interactive plus"

<https://interactive-plus.ru/e-articles/674/Action674-519255.pdf>

5. Воронова Е.Ю. Векшина А.А. Синергетический подход применения методологии бережливого производства в минимизации непроизводственных затрат // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. 2023. №1. С. 22...32.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114